

Xonandalikda talabalarga ovozni yo‘lga qo‘yishning amaliy va nazariy uslublarini o‘rgatish samaradorligini oshirish bo‘yicha tajriba sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

Qozoqov Azamat Egamberdi o‘g‘li

*Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasini
Vokal san‘ati (an‘anaviy xonandalik) bo‘limi
12-2 vokal 20 guruh talabasi*

ANNOTATSIYA: Komil inson tarbiyasida ana shunday musiqqa va san‘at maktablari va to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati katta. O‘quvchilarni san‘at maktablariga jalb qilish ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish samarali natijalar beradi.

KALIT SO‘ZLAR: Musiqqa, san‘at, musiqqa ta‘limi, estetik did, komil inson, tarbiya, kuy, garmoniya.

Musiqqa ellarni-ellarga, dillarni-dillarga bog‘lovchi kishi estetik didini tarbiyalovchi hamda madaniy saviyasini oshiruvchi mo‘jizaviy vositadir. Musiqqa bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Bola tug‘ilgandan so‘ng ilk bor ona allasini tinglab orom oladi. Ona allasiga, vatanga muhabbat, ona yurtiga sadoqat kabi buyuk insoniy his-tuyg‘ular mujassamdir. Musiqqa ta‘limi va tarbiyasi o‘quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Musiqqa ta‘limi asosan musiqqa va san‘at maktablarida, darslardan tashqari tashkil etilgan musiqqa to‘garaklarida o‘rgatiladi.

Komil inson tarbiyasida ana shunday musiqqa va san‘at maktablari va to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati katta. O‘quvchilarni san‘at maktablariga jalb qilish ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish samarali natijalar beradi. Tarbiya tizimi ta‘lim tizimi bilan uzviy bog‘liq. Tarbiyasi talab darajasida bo‘lgan har qanday o‘quvchi ta‘limni juda yaxshi o‘zlashtiradi. Shuning uchun komil inson tarbiyasida bu muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi qo‘shiq aytish malakasini rivojlantirish uchun vokal-xor mashqlaridan hamkeng foydalanadi. Mashq kuylashni har darsda muntazam holda olib borish kerak. Bu ma‘lum ma‘noda ertalabki badan tarbiyaga o‘xshaydi. Ertalabki badan tarbiyaning turli xil mashqlari tanani “yayratib”, kun bo‘yi bardamlik bag‘ishlasa, vokal xor mashqlari ovozni tobora ochib borib, butun mashg‘ulotni baland ruhda o‘tkazadi. Ijro malakasini egallashda vokal-xor mashqlari katta rol o‘ynaydi. Bu mashqlar turlicha bo‘lib, har xil maqsadlarni ko‘zda tutadi: nafasni mustahkamlash, ovozni rivojlantirish, uning ravonligini, harakatchanligini ta‘minlash, diapozonini kengaytirish, tovush hosil qilishda

yagona usulni qo'llash, sof intonatsiyani yuzaga keltirish, garmonik uquvini o'stirish, diksiyaning aniqligiga erishish va boshqalar. Vokal-xor mashqlari bolalarga ifodali ijroning texnik va badiiy usullarini egallashga yordam beradi. Ayrim mashqlar kompleks xarakterga ega bo'lib, turli malakalarni baravariga rivojlantiradi. Kundalik mashqlar bilan shug'ullanilmasa asar ijro etishni o'rganish jarayoni cho'zilib ketadi. O'quv yili boshlanishida vokal-xor mashqlari tanlanib, asta-sekin murakkabiga o'tib borishi kerak. Mashqlar o'rta dinamikada (sekin) erkin nafas almashinishida ijro etiladi. Vokal-xor mashqlari o'quvchilarni ma'lum darajada faollashtiradi, ularning diqqatini bir joyga to'playdi. Agar mashqlardan asarning murakkab joylarini intonatsiya qilishni yengillashtirish maqsadi ko'zlanadigan bo'lsa, qo'shiq aytish mashqini dars o'rtasida qo'shiq o'rganishdan avval kuylatish ma'qul. Har qanday vaziyatda ham vokal-xor mashqlariga 5-7 daqiqa ajratsa bo'ladi. Ovozni qo'yish - kuylovchining eshitish va mushak ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni, yaxshi xonandalik odatlarini ishlash. Kuylashga o'rgatishda asosiy vazifa - ovoz va eshitish, badiiy didni rivojlantirish. Tovush ustida ishlash jarayonida to'g'ri xonandalik ustanovkasi, nafas tayanchi ko'nikmalari egallanadi, nafasni to'g'ri taqsimlash, to'g'ri xonandalik pozitsiyasi o'rganiladi, bu ovozning jarangliligi, parvozliligi, yig'iqligi kabi sifatlarni baxsh etadi. Vokal mashg'ulotlari boshida, odatda ovoz apparatini "qizdirilgan", vocal ko'nikmalarini shakllantiradigan va rivojlantiriladigan mashqlar bajariladi. Cholg'u asbobi jo'rlligisiz kuylash solo kuylash sinfida o'qish mazmuniga kirgan maxsus ko'nikma bo'lib, bunday kuylash jarayonida xonandalik tovushning tembr, dinamik va tovush balandligi haqidagi eshitish tasavvurini komponentlari rivojlanadi. Kuylash faoliyatining amaliy turi sanaladi. Vokal o'qitish ko'p jihatdan xonandalik ovoz hosil qilish, amaliy kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirishdan iborat bo'ladi. Kuylashga o'rgatishda ovoz apparati a'zolari kuylovchilik vazifalariga maxsus moslashtiriladi. Kuylovchilik tovushi, jarang xarakteri haqidagi tasavvurlar musiqiy – mazmunli ifodalilik bilan belgilanadi va ovoz apparati ishiga ta'sir etadi. Vokal jarangi ifodaliligi, tovush sifati vokal -texnik ko'nikmalar: nafasni rezonatorlarishi, talaffuz apparatini egallashga bog'liq. Biroq texnik konikmalarni shakllantirish emotsional yo'nalish va badiiy ifodalilik bilan birga olib borilishi lozim. Xonandalik ovozga kasbiy talablar bu jarangdorlik, parvozlilik, yaqin chiroyli jaranglash. O'qitishning boshlang'ich bosqichida vokal - texnik ish ustuvorlik qiladi. Ovozning asosiy boshqaruvchisi (regulyatori) eshitish sanaladi. Ovoz va eshitishni rivojlantirish kuylashga o'rgatishdagi asosiy vazifa.

Kuylovchilik tovushi turli xususiyatlarini eshita olish, uni shu xususiyatlariga ko‘ra taniiy olish, ya’ni ovoz apparati ishiga ko‘ra tanish vokal eshitish deyiladi. Tovush hosil qilishda nafas olish muhim omil sanaladi.

Mazkur asar Vatan haqida yozilgan bo‘lib, ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik va tantanavorlik ruhida (zo‘riqmasdan), yopiqroq ovoz bilan kuylanmog‘i lozim. Yuqori pardadan pastki pardalarga tushayotganda ovozning yuqori holatini saqlagan holda shoshilmay barilla kuylash kerak. O... bilan kuylanadigan avj qismida esa, nafasni qorin bo‘shlig‘iga olib katta hujum bilan ovozni erkin qo‘yib baralla ijro etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Raxmanova, Istatjon. "Musiqa Ta’limida Zamonaviy Texnologiyalarni Joriy Etishning Mavjud Holati." *Journal Of Culture And Art* 1.10 (2023): 86-89.
2. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "Pedagogical Requirements For A Modern Music Teacher And His Possibilities Of Using Technologies." *American Journal Of Science And Learning For Development* 2.4 (2023): 244-247.
3. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "Preparing A Music Teacher To Use Modern Technology." *Thematics Journal Of Arts And Culture* 6.1 (2022).
4. Saidaxmedov S. Et Al. Xorazm Maqomlarining Talabalarga O‘rgatish Usullari //Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali. – 2022. – C. 324-326.
5. Рамазонова У. Х. Взгляды Восточных Мыслителей На Узбекскую Народную Музыку //Multidisciplinary Journal Of Science And Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 45-46.
6. Рамазанова У. Х., Давронова М. Б. Важность Использования Инновационных Технологий В Науке Об Основах Техники Пения //International Conference On Multidisciplinary Science. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 94-96.
7. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An’anaviy Xonandalik Rivojida Maqomlarning O‘rni //Science And Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.
8. Ramazonova U. H. Features Of Sound Recording In The Uzbek Singing Art //Procedia Of Philosophical And Pedagogical Sciences Issn. – Т. 2795. – №. 546x. – С. 58.
9. Kholmurodovna R. O., Esanova M. J. The Importance Of Imagination And Perception In Traditional Singing Performance //Pioneer: Journal Of Advanced Research And Scientific Progress. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 73-74.
10. Ramazonova, Ugiloy Holmurodovna, And Maftuna Muhamadova. "The Spiritual Impact Of Traditional Sound Exercises On The Minds Of Students." *Web Of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.3 (2022): 318-321.